



Jonqulova Nasiba Karimovna

*Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani 1-maktab Boshlang'ich sinfo qituvchisi.
She'r yozishga nihoyatda qobiliyatli, mактабning oldi o'qituvchilaridan. Turli xalqaro va
mahalliy konferensiyalarda ishtirok etib kelmoqda.*

KUZ...

Fasllar kelinchagi bahor deyishgan
Qishning beg'ubor qorlari zavqli
Yoz fasli tinimsiz mehnat va rohat
Kuz oltin jiloli za'faron bargli

Bir ko'ngil izhoriga bog'lardir guvoh
Yozning hosiliga kuz fasli guvoh
Qorlarning yukiga tog'lardir guvoh
Kuz, ajib hislaring totgim keladi

Men uchun maysalar, gullar ifori
Har nedan go'zaldir nurlar shu'lasi
Daraxtlar sokinlik mato ko'yakda
Kuz, ajib hislaring totgim keladi

Oshiqlar gul hayoti ibtidosi bor
Har faslning bayoti xush navosi bor
Keksaygan ko'ngil armoni senda
Kuz, ajib hislaring totgim keladi

Otamning qabridan ungan maysalar
Onamning qabridan ungan qizg'aldoq
Bahor jilvasini saqladi bir on
Kuz, ajib hislaring totgim keladi

Umrimiz bahori ko'ngil etar shod

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Oppoq qor sochlarimiz oralaydi shod
O'ksigan ko'ngilni etsaydi obod
Kuz,ajib hislaring totgim keladi

Yer yuzin tunda yoritib xira
Oymomo jilmayar yulduzlar aro
Tongda nurin sochgan quyoshla shomda
Ufqqa bosh qo'yib botgim keladi
Kuz, ajib hislaring totgim keladi

Yurakka botadi ozorli so'zlar
Ko'ngillar mulkidir muhabbat kalom
Fasllar insonning umrini ko'zlar
Bahor tug'ilish- u, umr mazmuni

Jannatlarda otamni ko'rgim keladi
Hurlar orasida onamni ko'rib,
Kuz,ajib hislaring totgim keladi
Yurakda bisyordir dardli so'zlarim
Mehrga muhtojdir mudom ko'zlarim
Ey samo ko'rsatgin otam yuzini
Yulduzlar ko'rsatgin onam ko'zini

Tongda uyg'otardi otam erkalab
Dasturxon yozardi onam ertalab
Qaymoq bilan yumshoq issiq non
Otam bilan onam ekan aslida

Kuz , ajib hislaring totgim keladi
O'sha ajib tongga qaytgim keladi..